



TRANSFORMATION OF SOCIAL CONSCIOUSNESS THROUGH CULTURE, EDUCATION AND MEDIA IN A REJUVENATING SOCIETY

Surayyo Berdikulova

Associate Professor

National University of Uzbekistan

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: social consciousness, transformation, culture, education, mass media, societal renewal, social development.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article analyzes the process of social consciousness transformation through culture, education, and mass media (MM) in a renewing society. The role of culture and education in shaping social consciousness is examined, as well as the significance of modern mass media in raising social awareness and creating new values. Social consciousness transformation is viewed as an important tool for societal renewal and development, wherein culture, education, and mass media interact and exert effective influence.

YANGILANAYOTGAN JAMIYATDA MADANIYAT, TA'LIM VA OAV ORQALI IJTIMOIY ONG TRANSFORMATSIYASI

Surayyo Berdikulova

dotsent

O'zbekiston Milliy universiteti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ijtimoiy ong, transformatsiya, madaniyat, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, jamiyat yangilanishi, ijtimoiy rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangilanayotgan jamiyatda madaniyat, ta'lim va ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali ijtimoiy ongning transformatsiyasi jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada madaniyat va ta'larning ijtimoiy ong shakllanishidagi roli, shuningdek, zamonaviy OAVning ijtimoiy xabardorlikni oshirish va yangi qadriyatlar yaratishdagi ahamiyati yorililadi. Ijtimoiy ong transformatsiyasi jamiyatning yangilanishi va rivojlanishida muhim vosita sifatida ko'rib

chiqiladi, bu jarayonda madaniyat, ta'lim va OAV o'zaro uyg'unlashgan holda samarali ta'sir ko'rsatadi.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ ЧЕРЕЗ КУЛЬТУРУ, ОБРАЗОВАНИЕ И СМИ В ОБНОВЛЯЮЩЕМСЯ ОБЩЕСТВЕ

Сурайё Бердикулова

доцент

Национального Университет Узбекистана
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сознание, трансформация, образование, средства информации, обновление социальное развитие.

социальное
культура,
массовой
общества,

Аннотация: В данной статье анализируется процесс трансформации социального сознания через культуру, образование и средства массовой информации (СМИ) в обновляющемся обществе. Рассматривается роль культуры и образования в формировании социального сознания, а также значение современных СМИ в повышении социальной осведомленности и создании новых ценностей. Трансформация социального сознания рассматривается как важный инструмент обновления и развития общества, в котором культура, образование и СМИ взаимодействуют и оказывают эффективное влияние.

KIRISH

Ijtimoiy ong – jamiyatning umumiylari tafakkuri, dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ma'naviy mavqeini ifoda etuvchi falsafiy kategoriyalidir. Yangilanayotgan jamiyatda modernizatsiya faqat iqtisodiy yoki texnologik o'zgarishlar emas, balki jamiyat ongidagi sifat o'zgarishi orqali amalga oshadi. Falsafiy nuqtai nazardan, ongning transformatsiyasi – jamiyatning o'zi haqidagi anglashini, voqelikni baholashini va kelajak sari harakatini shakllantiruvchi jarayondir.

Falsafada ijtimoiy ong — jamiyatning umumiylari dunyoqarashi, tafakkuri, qadriyatlar, ideallari va ma'naviy holatini ifoda etib, u nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki uni qayta qurishga ham qodir bo'lgan ruhiy kuchdir. Jamiyat ongidagi sifat o'zgarishi — bu ma'lum bir tahrirsiz o'zgarish emas, balki ontologik salohiyatni yangidan ifoda etish, ya'ni tafakkur darajasi, mazmuni va maqsadining tubdan o'zgarishidir. Shu o'rinda falsafada "ong" tushunchasini tahlil qilib, u insonning o'zini va olamni anglash qobiliyati, voqelik haqida fikr yuritishi, xulosa chiqarishi, qaror qabul qilishi va faollikni belgilaydigan ruhiy jarayon sifatida talqin etilishini aytib o'tish joiz. Gegel ta'kidlaganidek: "Ong — bu ruhning o'zini va voqelikni bilishdagi harakatidir[1]".

Falsafiy nuqtai nazardan ong — passiv in’ikos emas, faol anglash, qayta qurish va ma’no yaratish jarayonidir.

Bu o‘rinda yana bir muhim tushuncha “ongning transformatsiyasi” bo‘lib, u bu inson yoki jamiyat ongidagi dunyoqarash, qadriyatlar, fikrlash uslubi, ma’naviy ideallar sifat jihatdan o‘zgarishini anglatadi. Bu o‘zgarishlar mazmun, yo‘nalish va funksiya jihatidan yangi bosqichga o‘tishni bildiradi. Bu miqdoriy o‘zgarish emas, balki tub — sifat o‘zgarishidir. K. Yaspers bu jarayonni “o‘q davri” (Achsenzeit) deb atab, ongdagi tarixiy burilishlarni ta’riflaydi: “Insonning ongidagi transformatsiya bu — insoniy ma’naviyatdagi yuksalish nuqtasidir[2].”

Ong transformatsiyasi jarayonining falsafiy bosqichlari 1-jadval

1-bosqich:	Refleksiya (o‘zini anglash)	Inson yoki jamiyat eski g‘oyalar, qadriyatlar va stereotiplarni shubha ostiga qo‘yadi.
2-bosqich:	Dekompozisiya (tarqatish)	Mavjud ong tuzilmalari — ya’ni qoliplar, ideologiyalar, tasavvurlar tarqatiladi, qayta ko‘rib chiqiladi.
3-bosqich:	Interpretatsiya (yangidan ma’nolashtirish)	Yangilangan tafakkurda yangi qarashlar, g‘oyalar, normalar paydo bo‘ladi. Ijtimoiy voqelik yangicha baholanadi.
4-bosqich	Institutionallashuv	Yangilangan ong ta’lim, OAV, siyosat, madaniyat va huquqda o‘z ifodasini topadi.

ASOSIY QISM

Tarixga murojaat qilsak, masalan, Yevropa Renessans davri (XIV–XVI a.) – ongning transformatsiyasi “ilmiy aql va inson qadri” markazga chiqishi bilan bog‘liq. Inson endi Xudo oldida emas, tabiat va jamiyat oldida faol sub’yekt sifatida qaraldi. Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda esa eski mafkura inersiyasidan chiqib, inson qadri, huquqiy ong, milliy o‘zlik va ijtimoiy mas’uliyat asosida yangi ong shakllandi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Jamiyatda yangi ong va fuqarolik pozisiyasini shakllantirish milliy tiklanishning asosiy shartidir[3]”.

Ong transformatsiyasining falsafiy xususiyatlari

Xususiyat	Izoh
Dialektik	Eski va yangi ong o‘rtasidagi qarama-qarshilik va kurash jarayonida yuz beradi
Aksiologik	Qadriyatlar tizimining yangilanishi bilan bog‘liq
Intersub’yektiv	Jamoaviy muloqot, muhokama, faoliyat orqali shakllanadi
Ideologiyadan anglashga	Tayyor mafkuradan mustaqil anglashga o‘tish
Erkinlik va mas’uliyat	Fikr erkinligi bilan javobgarlik uyg‘unligi

Xullas, ongning transformatsiyasi – bu inson yoki jamiyat ongidagi tub o‘zgarish jarayoni bo‘lib, unda mavjud qadriyatlar qayta baholanadi, yangi fikrlash uslublari paydo bo‘ladi, voqelikni anglash usuli o‘zgaradi. Bu jarayon jamiyatning ma’naviy yuksalishini, siyosiy barqarorlikni va fuqarolik faolligini ta’minlaydigan ongli faol shaxslar avlodini yaratishga xizmat qiladi.

Falsafiy nuqtai nazardan sifat o‘zgarishi – bu shunday jarayonki, u natijasida mavjud ongda ko‘plab o‘zgarishlar kuzatiladi, masalan, u yangi mazmunga ega bo‘ladi. Bundan tashqari sifatiy o‘zgarishlar natijasida yangi jarayonlarni anglaydi, yangi funksiyalarni bajaradi va eng muhim — yangi qadriyatlar tizimini o‘zlashtiradi. Gegel ta’kidlaganidek: “Sifat o‘zgarishi – bu miqdoriy o‘zgarishlar yig‘indisi emas, balki tub mazmunning o‘zgarishidir[4]”.

Jamiyat ongidagi sifat o‘zgarishining o‘ziga xos bosqichlari mavjud. Bunday o‘zgarishlar avvalambor, tarixiy anglash (refleksiya) bosqichidan boshlanadi. Buning natijasida jamiyat o‘z o‘tmishini qayta baholaydi. Shundan so‘ng ijtimoiy ong mafkuraviy qoliplardan ozod bo‘ladi, ya’ni repressiyalar, milliy qadriyatlar, ma’naviy merosga yangicha munosabat shakllanadi. Navbatdagi bosqichda ijtimoiy tanqid va shakllanish jarayoni yuz beradi. Jamiyat o‘z muammolarini anglaydi va tanqid qila boshlaydi. Bu bosqichda tanqidiy ong va fikrlar xilmalligi yuzaga keladi. Ong sifatiy o‘zgarishlarining oxirgi bosqichi yangi ongning institutlashuvi hisoblanadi va bu degani jamiyatdagi sifat o‘zgarish institusional shaklda namoyon bo‘ladi, ya’ni yangi ta’lim mazmuni, yangi media va axborot formati hamda yangi siyosiy va huquqiy madaniyat shakllanadi.

Bunday sifatiy o‘zgarishining o‘ziga xos falsafiy mezonlari mavjud bo‘lib, ular umumfalsafiy tushunchalarga asoslanadi. Bizningfikrimizcha, avvalambor, ijtitmoiy ongda mazmun o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Yangi ong yangicha tushunchalar, tushuntirish modellari, interpretatsiyalar bilan shakllanadi. Shuningdek, jamiyatdagi qadriyatlar iyerarxiyasining almashinishi yuzaga keladi. Dastlab, birinchi darajada turgan narsalar (masalan, itoat, xavfsizlik) o‘rniga yangi qadriyatlar (huquq, javobgarlik, erkinlik) keladi. Bundan tashqari inson markazlilik (antroposentrism) mezoni mavjud bo‘lib, bunda jamiyatning e’tibori mafkuradan insonga qaratiladi. Yangi ong — inson qadrini tan oladigan ongdir. Birinchi Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Bizning islohotlarimizning markazida inson turadi – uning huquqi, sharafi va erkinligi”[5].

Ma’lumki, mustaqillik – o‘zbek xalqida o‘z kelajagi haqida qayta fikrlash zaruratini vujudga keltirdi. 1991 yildan boshlab o‘zbek jamiyati yangi bosqichga o‘tdi. Uning oldida endi faqat mafkuraviy emas, balki falsafiy, ma’naviy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan yangi kelajakni shakllantirish vazifasi turdi. Bu harakat falsafiy jihatdan “ontologik o‘zini anglashdan strategik o‘zini qayta yaratish” jarayoniga aylandi. Birinchi prezident I.A. Karimov shunday degan edi: “Biz kelajagimizni faqat o‘z kuchi, o‘z aqli, o‘z mehnati bilan yaratuvchi yurt bo‘lishni tanladik[6]”. Bu jumla strategik maqsadlar xalq irodasiga tayangan, o‘zligini anglagan insonga asoslanganini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizcha, mustaqillikni so‘nggi o‘n yilliklarida strategik maqsadlarni belgilashdagi bir qator asosiy falsafiy tamoyillar belgilab olindi:

1. Inson qadri tamoyili. Falsafiy nuqtai nazardan amalda inson markaziy qadriyat sifatida tan olindi. Bu antroposentrizm asosida yashayotgan jamiyat sari harakatni anglatadi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston siyosatida iqtisodiyot — inson manfaati va uning farovonligini ta’minlashga xizmat qilmog‘i darkor”[7], deb ta’kidlagan edi.

2. Ma’naviy yuksalish tamoyili. Maqsadlar faqat iqtisodiy emas, ma’naviy barkamollikni ham ko‘zlagan, ya’ni, insonning ma’rifat, axloq va e’tiqodi bilan boyigan jamiyat qurishga qaratilgan edi. “Yuksak ma’naviyat – jamiyat taraqqiyotining kafolati[8]”, sifatida belgilandi.

3. Davlat va jamiyat uyg‘unligi. Kelajak sari harakatda davlat instituti va fuqarolik jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuv va mas’uliyatli hamkorlik asos etib olindi. “Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada Yangi O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy asoslari mustahkamlanib, milliy davlatchilik taraqqiyotining hozirgi muhim tarixiy bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishga oid ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi”[9].

4. Tarixiy uzluksizlik va yangilanish dialektikasi. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi tarixiy meros va zamonaviy taraqqiyotning dialektik uyg‘unligini maqsad qilib oldi. Gegel shunday yozadi: “Yangi borliq – eski shakllardan farq qilgan holda, o‘tmishning mazmunini singdirgan holda yuzaga keladi[10]”.

Bizning fikrimizcha, strategik maqsadlarni belgilashning amaliy ifodasi “strategik maqsadlar qanday shakllandi?”, degan savolga javob izlaydi. Bu bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirildi.

1. Milliy davlatchilikni mustahkamlash: Konstitutsiya qabul qilinishi (1992), Milliy armiya, huquqiy tizim, davlat ramzlari.

2. Iqtisodiy mustaqillik va bozor munosabatlari: mulk shakllarining xilma-xilligi, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, infratuzilma islohotilari.

3. Ma’naviy tiklanish va ta’lim islohotlari: Milliy g‘oya va ma’naviyat dasturlari, tarix, adabiyot va diniy merosga munosabatning o‘zgarishi.

4. Yangilanish va global jarayonlarga moslashish: elektron hukumat, raqamli texnologiyalar, ochiq jamiyat prinsiplarini joriy etish, xalqaro hamkorlik.

Strategik maqsadlarni belgilashning falsafiy xususiyatlari 3-jadval

Tamoyil	Tavsif
Dialektik harakat	Eski tuzumdan yangi tizim sari qarama-qarshiliklar orqali o‘tish
Ontologik yangilanish	Jamiyat va insonning “kimman?” degan savolga javob izlashi
Aksiologik qayta qurish	Qadriyatlar iyerarxiyasi: inson, ma’rifat, tenglik ustuvorlikka chiqishi
Faol sub’yektlilik	Shaxsni ijtimoiy jarayonning passiv qismi emas, balki faol yaratuvchi sifatida ko‘rish

Ma’lumki, madaniyat – ijtimoiy ongning hayotiy poydevoridir. Falsafiy ma’noda madaniyat – bu inson tafakkurining moddiy va ma’naviy ifodasi, uning ma’no yaratish qobiliyatidir.

Madaniyat jamiyatning “simvolik ongi”, ya’ni qadriyatlar, urf-odatlar, estetik qarashlar, tarixiy xotiradagi ifodaqidir. Edvard Taylor shunday ta’rif beradi: “Madaniyat – inson jamiyatining axloq, bilim, san’at, qonun, urf-odat va barcha qobiliyatlarini qamrab olgan butunlikdir[11]”

Tadqiqotimizning ushbu nuqtasi madaniyatning ijtimoiy ongi transformatsiya qiluvchi jihatlarini o’rganishni taqozo qiladi. Madaniyat estetik ongi shakllantiradi – ya’ni jamiyatda “yaxshilik” va “yomonlik” me’yorlari yaratiladi. O’z navbatida madaniyat milliy o’zlikni uyg’otadi – milliy ramzlar, tarixiy meros, san’at va adabiyot orqali shaxs o’zligini anglaydi. Shuningdek, madaniyat qadriyatlar iyerarxiyasini belgilaydi – jamiyat nimaga ishonadi, nimaga intiladi va nimaga qarshi turadi – madaniyat orqali shakllanadi. ‘Milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismi bo’lgan madaniyat, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ayniqsa, so’nggi yillarda O’zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida»gi qonunini kabul qilganimiz va mamlakatimizda har yili 15 aprel sanasini — Madaniyat va san’at xodimlari kuni etib belgilaganimiz soha rivojida muhim ahamiyatga ega bo’ldi”[12].

Bizning fikrimizcha, madaniyat va ijtimoiy ong o‘zaro aloqadorlikda bo‘ladi. Falsafiy nuqtai nazardan, madaniyat — insonning ijtimoiy faoliyati natijasida vujudga kelgan moddiy va ma’naviy boyliklar majmuasi bo‘lsa, ijtimoiy ong esa jamiyatning umumiy tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini ifoda etadi. Madaniyat ijtimoiy ongi shakllantirishda va transformatsiya qilishda asosiy omil hisoblanadi. Madaniyatning ijtimoiy ongi transformatsiya qiluvchi bir necha jihatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Avvalambor, madaniyat qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Madaniyat jamiyatdagi qadriyatlar tizimini belgilaydi. Masalan, an’anaviy madaniyatda oila, mehnat, vatanparvarlik kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lsa, zamonaviy madaniyatda innovatsiya, erkinlik, individualizm kabi qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan madaniyat dunyoqarashni yangilashga xizmat qiladi. Madaniyat insonlarning dunyoqarashini yangilashda muhim rol o‘ynaydi. Yangicha madaniy tendensiyalar, san’at, adabiyot va ommaviy axborot vositalari orqali insonlar yangi g‘oyalar va qarashlar bilan tanishadilar, bu esa ijtimoiy ongi o‘zgartiradi.

Uchinchidan, madaniyat ijtimoiy normalar va urf-odatlarning o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatadi. Madaniyat ijtimoiy normalar va urf-odatlarni shakllantirishda va ularni o‘zgartirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, zamonaviy madaniyatda gender tengligi, ekologik ong, inson huquqlari kabi masalalarga e’tibor kuchaygan. “Hozirgi kunda tabiatni tushunish, ekologik ta’lim-tarbiya, aholida va avvalo yoshlarimizda ezbeglik, ko‘ngilchanlik, rahmdillikka da’vat etuvchi ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirish - atrof-muhitni saqlash borasida qilinishi zarur bo‘lgan muhim ishlardan biridir”[13].

Ta’lim o‘z funksional mohiyatiga ko‘ra shaxs va jamiyatning qadriyatlar tizimini qayta shakllantirishga xizmat qiladi. Ta’lim — bu axloqiy va falsafiy qarorlar qabul qilishga asos yaratadigan tafakkur tizimidir. U insonda “nima to‘g‘ri?”, “nima haqiqiy?”, “nima adolatli?” degan savollarga anglangan munosabat beradi. Platon ta’kidlaganidek: “Ta’lim — bu inson ongini nur sari burish, o‘z ongi bilan tanishishga yetaklashdir[14]”.

Qadriyat esa inson va jamiyat hayotida muhim, ma’naviy-axloqiy asos sifatida qabul qilingan, e’tirof etilgan tushuncha va me’yorlar tizimidir (masalan: adolat, erkinlik, vatanparvarlik). Ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsdagi qadriyatlar iyerarxiyasini shakllantirish va qayta qurish jarayonidir. Emil Dyurkgeym ta’kidlaganidek: “Ta’lim shaxsni jamiyatda yashashga tayyorlaydi. Bu esa uning qadriyatlarini jamiyatning ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirishni talab qiladi”[15]. Yuqorida ta’kilangani kabi qadriyatlar tizimini qayta shakllantirish – ta’limdagi jarayonning bosqichlarida amalga oshadi. Dastavval, qabul qilingan bilim — ichki tanlovga aylanadi (gnoseologik bosqich). Inson ma’lumotni faqat eslab qolmaydi — u ma’lumotga shaxsiy munosabat bildirishni o‘rganadi. Bu bilim “qaysi qadriyat menga mos?” degan savolni tug‘diradi. Bu keyingi bosqichda tanqidiy qayta baholash (dialektik ong) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekistonda ong transformatsiyasining asosiy bosqichlari (1991–2024) shartli ravishda muayyan ketma ketlikda amalga oshirilganini ta’kidlash joiz. Bu jarayonning 1-bosqich (1991–2005) mafkuradan ma’naviyat sari borish davri bo‘lib, mustaqillikning dastlabki yillarida ta’limning vazifikasi milliy qadriyatlar asosida jamiyat ongini “inersiya”dan chiqarish, shaxsning milliy o‘zligini tiklash, mustaqillik g‘oyalarini singdirish kabi yo‘nalishlarga burildi. Birinchi Prezident I.A. Karimov yozgan edi: “Ta’lim – faqat bilim berish emas, milliy ma’naviyatni tiklash, shaxs ongini tarbiyalashdir[16]”.

O‘zbekistonda ong transformatsiyasining 2-bosqichini (2005–2016) ta’lim orqali globallashuvga moslashish davri deyish mumkin. Bunda ta’lim jahon standartlariga mos o‘quv dasturlariga (Bolonya tizimi, IT, STEM) moslashish, tanqidiy fikrlash, fuqarolik ongi, huquqiy bilimlar ustuvor bo‘la boshladи hamda ta’lim orqali jamiyatda axborot madaniyati va iqtisodiy tafakkur shakllandи.

Bu jarayonning hozirgi bosqichi (2016–2024) yangi ongli shaxs sari transformatsiyani maqsad qilmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoyev siyosatida ta’limning missiyasi – erkin fikrlovchi, innovation, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash, fuqarolik pozisiyasiga ega insonni yetishtirish hamda jamiyatning ijtimoiy ongini yangilashga qaratilmoqda. Bundan tashqari u ta’kidlaganidek: “Bolalarning ongi va qalbiga Vatanga muhabbat hissini, oilaga, milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlarimizga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish tuyg‘usini singdirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘ydik”[17].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yangi ta’lim modellari orqali ong o‘zgarishini ko‘plab misollar vositada ko‘rish mumkin. Masalan, Prezident maktablari, Yangi O‘zbekiston universiteti — kritik fikr, STEAM, global dunyoqarashni tarbiyalovchi muassasalarning faoliyati boshlashi, myehribonlik va adolat g‘oyalarining ta’limda axloqiy asos sifatida ustuvor bo‘lib borishi, ma’naviyat va ilm uyg‘unligi — zamonaviy ilm-fan va ma’naviyat uyg‘unlashtirilmoqda. “O‘z-o‘zidan jahonda ta’lim sohasi ham shu qadar tez o‘zarmoqdaki, biz doimo bu boradagi zamonaviy strategiyalarga moslashishimiz zarur bo‘ladi”[18].

Demak, zamonaviy O‘zbekistonda ta’lim ijtimoiy ongni tubdan yangilash vositasi sifatida faollashmoqda, mafkuraviy qoliplarni yo‘q qilib, inson qadri va fikr erkinligini tarbiyalamoqda. Bu degani, ong transformatsiyasi – shaxsning dunyoqarash, tanlov, javobgarlik va ma’naviy tafakkur sohalarida sifat o‘zgarishi bilan tavsiflanadi. Falsafiy nuqtai nazardan ta’lim ongning qayta yaratilishi jarayoni bo‘lib, insonning ma’naviy va fikriy strukturasini shakllantiradi, shaxs va jamiyatni faol sub’yektlar sifatida qayta sinovdan o‘tkazadi. Ta’lim - jamiyatda ma’rifat, ma’naviyat, tafakkur va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantiruvchi eng muhim transformatsiya vositasidir.

Ommaviy axborot vositalari – ong muhokamasi maydoni sifatida falsafiy jihatdan – “jamiyatning ifoda apparati” va “aqliy muhit yaratuvchisi” hisoblanadi. Mishel Fuko va Yurgen Xabermasning fikrlariga ko‘ra, OAV orqali jamoaviy ong shakllanadi, “haqiqiylik” va “to‘g‘rilik” standartlari vujudga keladi. Xabermas yozadi: “Kommunikativ faoliyat orqali ijtimoiy ong shakllanadi – insonlar muloqot orqali fikr yuritish va qaror qabul qilishni o‘rganadilar[19]”.

OAVning ijtimoiy ongni qayta shakllantirishdagi roli tahlilga molik ahamiyatli masaladir. Bu bir nechta yo‘nalishlarda yuzaga chiqadi va ular: ijtimoiy vogelikni qayta interpretatsiya qilish – media orqali muayyan qarashlar “norma”ga aylantiriladi. Axborot madaniyatini shakllantirish – feyk, manipulyasiya va tanqidiy axborotni ajratish qobiliyatini shakllantiradi. Ma’rifiy tahlil, debat, munozara muhitini yaratish – fikrlar qarama-qarshiligidagi ong charxlanadi.

Ommaviy axborot vositalari – jamiyatdagi ma’naviy, axloqiy va siyosiy jarayonlarni shakllantirishda muhim falsafiy kuch hisoblanadi. Ular ijtimoiy ongning transformatsiyasida ham ijobjiy, ham salbiy omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda OAV va ijtimoiy ong munosabatini dialektik yondashuv asosida ko‘rib chiqish mumkin. Ijtimoiy ongning jamiyat a’zolarining umumiy qadriyatlar, g‘oyalar va dunyoqarashlar tizimini anglatishidan kelib chiqsak, OAV bu ongni shakllantirish va qayta shakllantirishda vositachi sifatida xizmat qiladi. Falsafa fani nuqtai nazaridan, ijtimoiy ong va moddiy sharoit o‘rtasida dialektik bog‘liqlik mavjud. Karl Marks ta’limotiga ko‘ra, “ong odamning borlig‘idan kelib chiqadi, aslida odamlarning ijtimoiy borlig‘i ularning ongini belgilaydi[20]”. Bu nuqtai nazardan qaralganda, OAV jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni aks ettiribgina qolmay, ularni faol ravishda shakllantirishga

yordam beradi. Mishel Fuko media va hokimiyat munosabati haqida shunday deydi: “Axborot – bu bilim emas, balki hukmronlik qilishning nozik shaklidir”[21]. Shu sababdan ham, falsafiy tahlilda OAVning faoliyati tanqidiy tahlil etilishi va uning ijtimoiy ongga ta’siri doimiy nazaroratda bo‘lishi lozim.

Yangi O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlarni aks ettirishi va bu jarayonning falsafiy mohiyati haqida ayrim misollar keltirish mumkin. Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Televide niye, internet portallari va gazeta-jurnallar orqali xalqqa yangi imkoniyatlar, soliq imtiyozlari, grant dasturlari haqida axborotlar yetkazilmoqda. Marks ta’limotiga ko‘ra, ijtimoiy ong moddiy hayotdan kelib chiqadi, ammo u ayni paytda unga ta’sir ham qiladi. OAVda iqtisodiy islohotlar haqidagi axborotlar aholining dunyoqarashini o‘zgartiradi, faollikni oshiradi, mehnatga, tadbirkorlikka munosabatni qayta shakllantiradi. Demak, OAV orqali iqtisodiy yangilanishning ongdagi in’ikosi insonning mehnatga munosabatini qayta shakllantiradi. Mehnat faqat turmush quroli emas, balki ijtimoiy qadriyatga aylanadi.

So‘nggi yillarda jamoatchilik ishtirokini ta’minlash, davlat organlarining ochiqligini oshirish maqsadida OAVda interaktiv platformalarning ishlab chiqilishi va ular orqali fuqarolarning fikrini eshitish jarayonlari yoritilmoqda. Gegel falsafasida ruhning yuksalishi sub’yektiv ongdan umumiyligi ongga qarab harakat sifatida tushuntiriladi. Buni OAV orqali fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi bilan chog‘ishtirish mumkin. OAV vositasida inson o‘zini siyosiy sub’yekt sifatida anglay boshlaydi. “Fuqarolik jamiyatining ongi faqat saylovda emas, balki doimiy axborot maydonida shakllanadi. Bu jarayonda OAV asosiy vosita hisoblanadi[22].”

Yangi O‘zbekistonda milliy urf-odat, an'analar, adabiyot va san'atni targ‘ib qiluvchi OAV loyihalari keng joriy etilmoqda. Bu madaniyatni tiklash va globalizm tahdidlariga qarshi mafkuraviy qalqon bo‘lib xizmat qilmoqda. Gumanistik falsafa nuqtai nazaridan, insonning ma’naviy dunyosi u aloqada bo‘lgan axborotlar orqali shakllanadi. Ya’ni OAV insonning estetik hissi, milliy iftixori, madaniy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. “Agar axborot madaniyatni targ‘ib qilsa, u ma’naviyatga xizmat qiladi. Agar u arzimagan narsalarni ko‘paytirsa, u ongni zaiflashtiradi”[23]. Xullas, OAV ijtimoiy ongni qayta shakllantirishda milliy ong va mafkurani mustahkamlash, jamiyatda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, yolg‘on va manipulyativ axborotlardan himoyalash hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish kabi falsafiy vazifalarni bajaradi. Bu jarayonda OAVning mas’uliyati – faqat axborot tarqatish emas, balki jamiyat ongini ma’rifiy, ma’naviy va axloqiy jihatdan yuksaltirish ekanini unutmaslik kerak.

Shuningdek, Yangi O‘zbekistonda OAV iqtisodiy islohotlar sharhchisi, siyosiy islohotlarning shaffoflik kafolati hamda madaniy qayta tiklanishning mafkuraviy ustuni sifatida faoliyat yuritmoqda. Bu jarayonda falsafiy nuqtai nazardan OAV – ijtimoiy ongni shakllantiruvchi va islohotlarni ruhan qo‘llab-quvvatlovchi kuch sifatida qaraladi.

XULOSA

Xullas, yangilanayotgan jamiyatda madaniyat, ta’lim va OAV orqali ijtimoiy ong transformatsiyasi umumiy falsafiy xususiyatlar va sintezi bin nechta modellarni taklif qiladi: Intersub’yektiv ong modeli - shaxsiy ong jamoaviy anglashda shakllanadi. Ya’ni inson muloqot, ta’lim va madaniy muhit orqali o‘z ongini yaratadi. Tanqidiy–dialektik fikr modeli – Yangi ong bir taraflama qabul emas, balki fikrlar qarama-qarshiligini anglash va baholash asosida rivojlanadi. Ma’lumotdan ma’no sari yo‘nalish – axborot oqimidan foydalanishni bilish, bilishdan anglash sari qadam tashlash – ongdagi tub o‘zgarishga olib keladi.

Yangilanayotgan jamiyatda ijtimoiy ongning transformatsiyasi madaniyat orqali – simvolik ong va qadriyatlar tizimini yaratadi, ta’lim orqali – insonda yangi ong va tafakkur mexanizmlarini shakllantiradi hamda OAV orqali – jamoaviy anglash, tanqidiy mulohaza va ma’naviy immunitetni mustahkamlaydi. Bu jarayon falsafiy jihatdan inson qadri, ma’naviy erkinlik va javobgarlik tamoyillari asosida yuz beradi va yangi ijtimoiy ongning mustahkam asosiga aylanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гегель Г.В.Ф. «Феноменология духа». – М., 1977. – Б. 58
 2. Ясперс К. «Смысл и назначение истории». – М.: Республика, 1991. – Б. 91
 3. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 72
 4. Философия природы. – М.: Мысль, 1975. – Б. 261
 5. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 19
 6. Каримов И.А. Биз танлаган йўл. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – Б. 21
 7. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б. 33
 8. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 9
 9. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б. 73
 10. Гегель В. Г. Феноменология духа. – М.: Мысль, 1977. – Б. 113)
 11. Tylor E. B. Primitive Culture. – London, 1871. -P. 248
 12. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б. 269
 13. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Тошкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б.401

14. Платон. Государство. – М.: Наука, 1994. – Б. 142
15. Durkheim E. Education and Sociology. – 1922
16. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 15
17. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Ташкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б.143
18. Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон [Матн]. - Ташкент “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.-Б. 67
19. Habermas J. Theory of Communicative Action. – 1984. – Vol. 1, p. 85
20. Маркс К., Энгельс Ф. Танланган асарлар, т.1, Ташкент, 2001, 53-бет)
21. Foucault M. “Discipline and Punish”, Vintage Books, 1995, p. 202
22. Ҳ. Ҳакимов. “Фуқаролик жамияти фалсафаси”, Ташкент, 2019, 87-бет
23. А. Қодиров. “Ахборот ва маънавият”, Фалсафа журнали, №2, 2020, -Б.43.